

**IX-XII ASRLARDA MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA RO‘Y BERGAN  
MADANIY UYG‘ONISH (RENESSANS) DAVRIDA. BUYUK  
ALLOMALARIMIZNING JAXON SIVILIZATSIYASIGA  
QO‘SHGAN XISSALARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi*

***Nigora Mahmudjonovna Atabayeva***

*Andijon davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi*

***Sodiqova Muhabbat Salimovna***

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Oligofrenopedagogika yo’nalishi 101-guruh talabasi*

***Raximjonova Ziyoda Zoxidjon qizi***

***Ulug’bekova Mexribon Latifjon qizi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro‘y bergan madaniy uyg‘onish (Renessans) davrida. Buyuk allomalarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissalari haqida yoritiladi.

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о периоде культурного возрождения (Ренессанса), который происходил на территории нашей страны в IX-XII веках. Будет освещен вклад наших великих ученых в мировую цивилизацию.

**Annotation:** in this article, during the Cultural Renaissance (Renaissance) that took place on the territory of our country in the 9th-12th centuries. Highlights the contributions of our great allomas to world civilization.

**Kalit so’zlar:** Renessans, antik davr, umumbashariy, daholar, allomalar,mash’ala, jahonshumul, kashfiyot,iftixor, beqiyos, falsafiy asar,tafakkur, Algebra, algoritm.

**Ключевые слова:** Ренессанс, античность, универсальный, гении, ученые, факел, Всемирный, открытие, гордость, несравненный, философский труд, мышление, алгебра, алгоритм.

**Keywords:** Renaissance, antiquity, universal, geniuses, allomas, torch, worldly, discovery, pride, incomparable, philosophical work, contemplation, Algebra, algorithm.

Renessans (fransuzcha renaissayce – uyg‘onish) – insoniyat ma’naviy taraqqiyotidagi uyg‘onish davri. Bizning xalqimiz o‘z tarixida ikki bor ana shunday Renessansni yaratgan. Birinchisi ilk o‘rta asrlarda, ikkinchisi esa Sohibqiron Temur va temuriylar davrida ro‘y bergan va insoniyat taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Birinchi Renessansga sabab bo‘lgan omillardan yana biri - bu mustaqil

markazlashgan davlatlarning shakllanishidir. Yusuf Xos Hojibnig "Qutadg'u bilig" asari o'sha mamlakatlarning o'ziga xos ijtimoiy konstitutsiyasi bo'lib xizmat qilgan. O'sha payt markaziy-osiyoda x-xx asr boshida madaniyat rivojiga erishtirish uchun esa harakat dasturini o'zida ifodalovchi asar zamirida "Qutadg'u bilig" asar yozilgan edi. Uyg'onish davri kuzatilishi uchun qulay sharoit bo'lishi bilan birgalikda, taraqqiyotga to'siq bo'luvchi omillar ham hal qilingan bo'lishi shartdir. "Arab xalifaligida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar, Islom dinining vujudga kelishi madaniy hayotga ham o 'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ta'sir katta ko'tarinkilik ruhini paydo qiladi va bu ruh arab xalifaligini, Sharqni qamrab olganligi uchun Sharq uyg'onish davri deb ataladi. Bu jarayon IX asrdan boshlanib, XV-XVI asrlargacha davom etadi". Hammangizga yaxshi ma'lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi to'qqizinchi – o'n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. "Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olaming faxru iftixori va cheksiz g'ururi hisoblanadi" Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqr ishlab chiqiddi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abulalo alMaarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheraziy, Nizomiy Ganjavip, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniaturra rassomchiligidida bir necha maktablar shakllandı, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davri ning yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan „Ming bir kecha“, „Kalila va Dimna“, „Qirq vazir“, „To'tinoma“, „Sindbodnama“, „Jome'ul hikoyot“ kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan „Xamsa“larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir. Ibn Sinoning „Tib qonunlari“, „AshShifo“, Forobiyning „Ilmlar tasnifi“, Ahmad Farg'oniyning „Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi“, Muxammad Muso Xorazmiyning „Aljabr val muqobila“, Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari

tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari tufayli shakllangan. „Tib krnunlari“ 7 asr mobaynida Yevropa untlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd goyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino — Avitsenna, Ibn Rushd — Averroes, Ahmad Farg‘oniy — Al Frageni, Abu Bakr Roziy — Al Ramzats, Abu Ma’shar Balxiy — Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo‘lgan. „O’sha paytda (13—16-asr) jaholat changalidagi Yevropaning ko‘pgina qismida musulmonlar ilm charog‘ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shim., g‘arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon — rumo — arab urug‘idan unib chiqqandir“ (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. „Sharqliklar G‘arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar“ (Gegel). Yevropa Uyg‘onish davri adiblari Dante, Petrarka, Bokkacho Sharq ilmfani, adabiy asarlaridan ilhomlanganlar. Dante „Bazm“, „Ilohiy komediya“ asarlarida Ibn Sino va Ibn Rushdni o‘z ustozlari qatorida ehtirom bilan tilga oladi. Axmad Farg‘oniy asarlaridan foydalanganini qayd etadi. K. Marloning „Buyuk Temur“ dramasida Amir Temur jasur, xaloskor inson sifatida tasvirlangan. Mirzo Ulug‘bek, Jomiy, Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Boburlarning ham dong‘i butun dunyoga tarqaldi. Bu davrda mahalliy maqom ijodiyoti va ijrochiligi yuksaldi, og‘zaki an’anadagi musiqaning boshqa rivojlangan shakllari (doston, ashula, cholg‘u kuy va boshqalar) keng o‘rin egallab, o‘zlarining yuqori pallalariga ko‘tarildi. Ayni shu jarayon keyinchalik Buxoro Shashmakomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona — Toshkent makomchilik yo‘llari, katta ashulalar shakllanishiga turtki bo‘lib butun olamga taralishiga olib keldi.

**Xulosa:** ushbu maqoladan xulosa shuki dastlabki renessansda islom sivilizatsiyasining tamal toshini Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy kabi buyuk olimlarimiz tomonidan qo‘yilgan bo‘lsa, ikkinchi Renessansda esa Buyuk Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri keladi va bu davrning eng ilm-fan rivojlangan va yuksak cho‘qqilarni zabit etgan davri sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek davriga to‘g‘ri keladi.

yanada yuksalishga erishildi. Agarda e’tibor bersak, har ikkala uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning e’tibori mamalakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta’lim-tarbiya ustuvor bo‘lgan. Bundan tashqari, bizning ajdodlarimiz yuksak ahloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchi bo‘lgan. Bizning buyuk bobolarimiz o‘zları bilmagan holda bugun tarixchilar e’tirof etayotgan Renessans davrining ijrochilariga aylangan. Renessans o‘zi-uyg‘onish, qayta tiklanish, yuksalish deb atalishi barchamizga ayon. Demak, O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga ya’ni, Renassansga beshik bo‘lgan. Bu jahon ilm-u fanida o‘z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir. Hozirgi kunda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish

jarayoni kechmoqda. Shuning uchun Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda va xalqimizni butun O‘zbekiston xalqini ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. F. F.YTaeB (2022). АЖДОДЛАРИМИЗ ТАФАККУРИ ВА БУЮК ДАХРСИ. Academic research in educational sciences, TMA Conference 3 (3), 412-415. 1-бет.
2. Каримов, И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, Маънавият нашриети, 2008 й. 176 б.
3. Мирзиёев Ш. Янги Узбекистан демократик узгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмокда. - Тошкент: Уқитувчи МУ МЧЖ, 2021 йил. - Б. 10.
4. Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Салибий - Тошкент: Узбекистон, 1992. - Б. 50.
5. Юсуф Хос X,ожиб. "Кутадгу билиг" (Saodatga йулловчи билим). Транскрипция ва хозирги узбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчилар филол.фан.кан. Каримов. - Тошкент: Фан, 1971. - Б. 7.
6. Sulaymonova, Shahnoza Nodirovna (2023). IX-XI ASRLARDA MUSULMON SHARQIDA MADANIY - MA'NAVIY TARAQQIYOT. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 1064-1076.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga boshlovchi bilim). // Т - "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2019. 240 bet
8. Sobirov, G'Ulomjon Xikmatjon O'G'Li. ""QUTADG'U BILIG" ASARINING TURK TILIDA ORGANILISHI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 9, 2023, pp. 151-155.